



---

## **TO'SATDAN YURAKDAN O'LIMLARDA QALQONSIMON BEZ DISFUNKSIYALARIDAGI PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLAR**

Xakimov Z. Q.

Mamatalieva M. A.

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston

### **Dolzarbligi**

Yurakning ishemik kasalliklarini kechishida, to'satdan o'limlarda va to'satdan yurakdan o'limlarda qalqonsimon bezning funktsional holati katta ahamiyatga ega bo'lib, bir qator tadqiqotlarda yurakning ishemik kasalliklarini o'tkir shakllarini rivojlanishida mustaqil va muhim xavfli omil sifatida diabet, gipertoniya, chekish va semizlik kabi ahamiyatga ega bo'lgan manifest va subklinik gipotireozlar ham qayd etilgan.

Uzoq vaqt davomida biogeokimyoviy muhit omillari ta'siri ostidagi endemik bo'qoq hududida yashayotgan to'satdan yurakdan o'limlardan vafot etgan insonlar yuragidagi o'zgarishlar bilan parallel ravishda qalqonsimon bezida ham o'ziga xos morfologik o'zgarishlar yuz beradi.

### **Tadqiqot maqsadi**

To'satdan yurakdan o'limlarda qalqonsimon bez disfunktsiyalaridagi patomorfologik o'zgarishlarni o'rganish.

### **Tadqiqot materiallari va usullari**

Tadqiqot materiali sifatida 2015-2023 yillar davomida ADTI klinikasi patologik anatomiya bo'limi, RPAM va RSTEIAM-AFda tekshiruvdan o'tgan yurakdan to'satdan o'lim va tireoid patologiyalaridan vafot etgan insonlardan olingan yurak va qalqonsimon bez to'qimalari bo'ldi (jami 75 nafar). Ushbu materiallarni o'rganishda autopsiya bayonnomalari, patogistologik va sud - gistologik arxiv materiallari va sud tibbiy ekspertiza xulosalaridan foydalanilgan. Vafot etganlar 20-60 yosh va undan yuqori yoshlar o'rtasida o'rganildi. Tadqiqotning rejalashtirilgan hajmi har bir yosh guruhi uchun 10 tadan tadqiqot obyektlari olindi (nazorat guruhi, tadqiqot guruhlarini (diffuz va tugunli kolloid makro-



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> December, 2024

mikrofollikulyar bo‘qoqlar), erkaklarda ushbu patologiyalarning nisbatan ko‘proq kuzatilishini inobatga olib ularda tekshiruv o‘tkazildi). Jami 50 tadan miokard va qalqonsimon bez to‘qimasi kesimlari tekshirildi.

Tadqiqot uchun 25 ta yurakdan to‘satdan o‘lim va qalqonsimon bez patologiyasidan vafot etmagan, boshqa sabablardan (yirik qon tomirlarini kesmasanchma jarohatlanishlari, ichki qon ketishlar) vafot etgan insonlardan olingan miokard va qalqonsimon bez to‘qimalari bu guruhlar uchun nazorat hisoblandi.

To‘satdan yurakdan o‘limlarda qalqonsimon bez follikulalari tuzilishining gormonal komponentlari rezorbstiyalanishi kuzatilib, u tireostitlar vazifasining faollashishi (tireoid epiteliy balandligining kattalashishi, suyuq kolloidli mikrofollikulalar sonining oshishi bilan yangi follikulalarning hosil bo‘lishi, mikrotsirkulyator o‘zan tomirlarini keskin reakstiyasi bilan namoyon bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar nazorat guruhiga taqqoslanganda ishonchli farq qildi.

### Tadqiqot natijalari

Qalqonsimon bez morfometrik tekshiruvlarida nazorat guruhida yosh ortishi bilan tomirlardagi aterosklerotik o‘zgarishlar va miokarddagi kontraktur shikastlanishlar kuchayib borib, bezning morfofunkstional faolligi pasayishi kuzatildi. Tadqiqot guruhida to‘satdan yurakdan o‘limlarida qalqonsimon bez parenximasida tireostitlarni faollashuv belgilari, tugunlarda esa tireostitlar faollashishini morfologik belgilarini yo‘qligi kuzatildi.

Yosh kattalashgan sari qalqonsimon bez tomir devorlarida a‘zo ishemiyasi bilan kuzatiluvchi sklerotik o‘zgarishlar, qalinlashish aniqlandi. Morfometrik tekshiruvda tadqiqot guruhlarida follikula diametrlari: 110 – 121 – 150 - 144 mkm, bez epiteliysini balandligi 4,6 - 4,5 - 4,3 - 4,1 mkm.ga teng bo‘ldi. Nazorat guruhida follikula diametri 115 - 120 – 140 – 150 mkm, epiteliy balandligi esa 4,7 - 4,7 - 4,5 - 4,4 mkm.ni tashkil qildi. Qalqonsimon bez to‘qimasida follikula diametri tugundan tashqarida (mikronlarda) 125 – 106 – 117 – 109 mkm; epiteliy balandligi (mikronlarda): 4,3 - 5,1 - 4,7 - 4,6 mkm.ga teng bo‘ldi. Tugunda follikula diametri: 153 - 164 – 161 – 162 mkm, epiteliy balandligi 5,5 - 6,4 - 6,0 - 6,1 mkm. bo‘lib, to‘satdan yurakdan o‘limlarda qon tomirlarni aterosklerotik



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> December, 2024

o'zgarishi va miokardni kontraktur shikastlanishlari va qalqonsimon bezning morfofunktsional holati o'rtasida teskari munosabat kuzatildi.

### Xulosa:

To'satdan yurakdan o'limlarda qalqonsimon bezning sekretor va rezorbtiv faoliyatini morfologik belgilarini namoyon bo'lishi miokardni kontraktur zararlanish bilan parallel bo'ldi. Qalqonsimon bez follikulyar apparati va kapillyar tarmog'ini morfologik qayta tuzilishi to'satdan yurakdan o'limlarida qalqonsimon bez funktsional holatidagi o'zgarishlarini aks ettirdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бомаш Н.Ю. Морфологическая диагностика заболеваний щитовидной железы. // М.Мед.- 1981. с. 176.
2. Свистунов В.В., Макарова А.Е., Воронцова М.В. Атеросклероз, гипертоническая болезнь. // Уч.пос.для орд. Иркутск – 2018. с. 70.
3. Хмельницкий О.К. Цитологическая и гистологическая диагностика заболеваний щитовидной железы: рук-во. - СПб.: Сотис, 2002. – с. 288.
4. Insull William. The Pathology of Atherosclerosis: Plaque Development and Plaque Responses to Medical Treatment. // The American Journal of Medicine, Vol 122, No 1A, January 2009. p. 4-13.
5. Rafieian-Kopaei M, Setorki M, Monir D. Atherosclerosis: Process, Indicators, Risk Factors and New Hopes. Int J Prev Med. 2014 Aug; 5(8): p. 927–946.
6. Алтунин А. В. Нарушения внутрисердечной гемодинамики и методы их коррекции у больных ИБС на фоне гипотиреоза. // Автореф. дис. на сос. уч.стен. к.м.н. 2004. с 25.
7. Волков В.П. Новый подход к оценке морфофункционального состояния щитовидной железы //Universum: Медицина и фармакология.: электрон.науч. журн. 2014. № 12 (13). с. 35-40.
8. Гервальд В.Я., Насонов Т.Г., Лепилов А.В. и др. Внезапная сердечная смерть. Состояние проблемы. // Международный журнал сердца и сосудистых заболеваний. 2015. Т. 3, № 6. с. 35-41.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

16<sup>th</sup> December, 2024

9. Левитин А.В. Морфология щитовидной железы при острых формах ишемической болезни сердца. // Автореф. дис.на соис. к.м.н. 2010. 19 с.
10. Панченкова Л.А. и др. Тиреоидный статус и сердечно-сосудистая система. // Рос.мед. вести. 2000. - №1. с.18-25.
11. Мальцева А.С., Строгонова В.В. Предикторы внезапной сердечной смерти. // Scientific Cooperation Center “Interactive plus”. 2018. с. 1-11.